NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-9]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

BO‘ LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY KREATIVLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH IJTIMOIY-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Sh. D. Ablakulov
Ps.f.f.d (PhD)
Namangan davlat universiteti O‘ quv-uslubiy boshqarma boshlig‘ i

Annotatsiya: *Usbu maqolada bo‘ lajak pedagoglarning k* *a oid nazariy, psixologik va metodik jihatlar yoritilgan. Unda kreativlikning ta* *ıti, shakllanish omillari hamda uni rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy y* *ʒdek, maqolada innovatsion pedagogik texnologiyalar, improvizatsiyaga asoslangan*

Kalit so‘ zlar: *innovatsion ta’lim, pedagogika, kreativlik, kasbıy kreıvlık, zamonavıy pedagogık texnologıya, zamonaviy pedagogik g‘ oya, intuitsiya, improvizatsiya.*

РАЗВИТИЕ КОМПЕТЕНЦИЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КРЕАТИВНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ КАК СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация: *В данной статье освещаются теоретические, психологические и методические аспекты развития компетенций профессионалной креативности будущих педагогов. На научной основе проанализированы структурные компоненты креативности, её значение в профессионалной деятелности, факторы формирования, а также современные подходы, способствующие её развитию. Кроме того, в статье представлены инновационные педагогические технологии, методы, основанные на импровизации, и практические рекомендации.*

Ключевые слова: *инновационное образование, педагогика, креативност, профессионалная креативност, современные педагогические технологии, современные педагогические идеи, интуитсия, импровизатсия.*

DEVELOPING THE PROFESSIONAL CREATIVITY COMPETENCIES OF FUTURE TEACHERS AS A SOCIO-PEDAGOGICAL PROBLEM

Abstract: *This article explores the theoretical, psychological, and methodological aspects of developing professional creativity competencies in future teachers. The structural components of creativity, its significance in professional activity, the factors influencing its formation, and contemporary approaches that contribute to its development are analyzed on a scientific basis. The article also presents innovative pedagogical technologies, improvisation-based methods, and practical recommendations.*

Keywords: *innovative education, pedagogy, creativity, professional creativity, modern pedagogical technologies, contemporary pedagogical ideas, intuition, improvisation.*

KIRISH

Yangilanayotgan O‘ zbekiston ertangi kunini farovon bo‘ lishi uchun hamda uchinchi renesans muvofaqiyatli amalga oshirish yo‘ lida yoshlar tarbiyasiga alohida e’tibor berib kelmoqda. XXI asr birinchi choragi yakunlanish arafasida prizenditimiz tomonidan qabul qilingan 2024-yil 1-fevralida tasdiqlangan «Pedagog maqomi» to‘ g‘ risidagi Qonun bo‘ lajak pedagoglarni va faoliyat ko‘ rsatayotgan yosh pedagoglarni yangi kuch-g‘ ayrat bilan sayi harakat olib borishga undamoqda1.

Ma’lumki, kasbiy tajriba bilim, ko‘ nikma va malakalarning integratsiyasi sifatida aks etadi. Biroq, kasbiy-ijodiy, pedagogik intuitsiya, pedagogik kreativlik va pedagogik improvizasiya faoliyati ko‘ nikmalarining o‘ zlashtirilishi nafaqat amaliy ko‘ nikma va malakalarning integratsiyasi, mutaxassis sifatida faoliyatni samarali tashkil etish usul va vositalarini ishlab chiqishni emas, shu bilan birga kasbiy ijodkorlik metodologiyasidan xabardor bo‘ lish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarining etarli darajada o‘ zlashtirishni talab etadi.

1 O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 01.02.2024 yildagi O‘RQ-901-son, “YangiO‘zbekiston” gazetasi 26-son

Kreativlik - inson hayotining barcha jahatlarida o‘ z aksini topgan, shuning bilan birgalikda u ta’lim tizimiga ham kirib borgan. Binobarin, hozirgi kunda o‘ qituvchining ijodkorligi u tomonidan tashkil etiladigan kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy (kreativ) yondashuvi aks etadigan holat «pedagogik kreativlik» tushunchasi bilan ifodalanmoqda.

Pedagogik kreativlik – pedagogning an’anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta’lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta’minlashga xizmat qiluvchi yangi g‘ oyalarni yaratish, shuningdek, bo‘ lajak pedagoglarning kasbiy kreativlik kompetensiyalarini rivojlantirishning ijtimoiy va psixologik muammolarni ijobiy hal qilishga bo‘ lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyatlar turiga kiradi.

Kasbiy kompetentlik – bo‘ lajak pedagoglarning kasbiy kreativlik kompetensiyalarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘ lgan bilim, ko‘ nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘ llay olinishidir.

Bo‘ lajak pedagogning kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlar (1.1-rasmga qarang):



tlik negizida aks e

Intuitsiya (lot. «intuitio», «intueri» – «sinchiklab, diqqat bilan qaramo gan yoki mantiqiy xulosaga kelish uchun dalillar etarli bo‘ lmaganda chuqur mulohaza yuritish ng tarkibi bo‘ lgan evristik (unumli ijodiy fikrlash) jarayonidir2.

Pedagogik intuitsiya – o‘ qituvchining pedagogik jarayonda o‘ zaro mantiqiy bog‘ lanmagan yoki mantiqiy xulosaga kelish uchun dalillar etarli bo‘ lmagan chuqur mulohaza yuritish asosida ta’limiy va tarbiyaviy muammolarni echishga qaratilgan evristik fikrlash jarayonidir. Bu esa bo‘ lajak pedagoglarning kasbiy kreativlik kompetensiyalarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik jihatdan yanada ijodkorona yondashishga undaydi.

Improvizasiya (lot. improvisus — kutilmagan, bexosdan) — she’r, musiqa va boshqalarni oldindan tayyorgarliksiz, ijro davomida ijod etish; aktyor o‘ yinida bexosdan paydo bo‘ ladigan ilhom, ijodiy fantaziya, ruhiy ko‘ tarinkilik, fikr, so‘ z, ohang va tasvirning erkinligi. Aktyor o‘ yinidagi improvizasiya ijro etilayotgan rolni jonlantiradi, unga yangi ma’no beradi3.

Pedagogik improvizasiya – o‘ qituvchi pedagog tomonidan dars yoki muloqot jarayonida kutilmagan vaziyatlardagi holatni tezkorlik bilan o‘ rganib, unga javob topish, zudlikda pedagogik qaror qabul qilish va jarayon (holat)ni ijobiy tarzda qo‘ lga olish va uni deyarli darhol amalga oshirishdir.

Pedagogik improvizasiya - pedagogning pedagogik muloqot jarayonida amalga oshiriladigan, oldindan mulohaza yuritmasdan, maslahatlashmasdan olib boriladigan qobiliyat turidir. Pedagogik improvizasiyaning o‘ ziga xosligi shundaki, u tarbiyaviy xarakterga ega pedagogik faoliyatga jozibali tus beradi, amaliyotdagi yutuqlarga erishishga hamda pedagogning ijodiy g‘ oyalarini samarali amalga oshirishga yordam beradi. Bu pedagogning kasbiy faoliyatida improvizasiyadan foydalanish zaruriyati uning faoliyatga xos bo‘ lgan bir qator ziddiyatlar bilan oldindan belgilanadi.

Muhokama va natijalar: Oliy ta’lim muassasalari bo‘ lajak pedagoglarni tayyorlashda kasbiy kreativlik kompetensiyalarini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari mazmuni, metodikasi, shakl va metodlari, predmeti, pedagogik faoliyat jarayonida ularni qo‘ llash hisoblanadi.

Tadqiqot jarayonida uning muammosi, ob’ekti, predmeti va maqsadiga muvofiq quyidagilar asosiy vazifalar qilib belgilandi:

- bo‘ lajak pedagoglarning kasbiy kreativlik kompetensiyalarini rivojlantirish borasida psixologik vazifalarini aniqlash;

bo‘ lajak pedagoglarning psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib kasbiy kreativlik, pedagogik intuitsiya, va pedagogik improvizasiya mazmuni, tuzilishi, tipologiyasi hamda mezonlarini aniqlash;

2 Гилманов, С. А. Интуиция в профессиональной деятелности педагога: автореф. дис. на соискание ученой степени канд. пед. наук: 13. 00. 01

3 Педагогический энциклопедический словарь / гл. ред. Б.М. Бим-Бад. – М.: Болшая Российская энциклопедия, 2002

pedagogning kasbiy faoliyatda bo‘ lajak pedagoglarning psixologik xususiyatlaridan foydalanishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlarini aniqlash va asoslash, ularning asoslari va metodlari tizimini yaratish va amalda qo‘ llash;

bo‘ lajak pedagoglarni tayyorlashda kasbiy kreativlik kompetensiyalarini rivojlantirishning psixologik xususiyatlarining ijodiy tayyorgarligini takomillashtirish bo‘ yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish kabilar belgilab olindi va bajarildi.

Xulosa. Izlanish va tadqiqotlarimiz shuni ko‘ satadiki, mualliflik ta’rifimizga ko‘ ra bo‘ lajak pedagoglarning kasbiy kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishda uning ongli tahlili emas, balki yuzaga kelgan vaziyatning keyingi ko‘ ra bilish va natijasini kutishga asoslangan hamda pedagogik qarorni tez va bir zumda qabul qilish jarayoni pedagogik intuitsiyadir. Bo‘ lajak pedagoglarni tayyorlashda kasbiy kreativlik kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogic-psixologik xususiyatlarini tahlil qilish asosida bo‘ lajak pedagogning kasbiy faoliyatida intuitsiya, kreativlik va improvizasiyalardan foydalanishning ilmiy asoslangan metodikasini yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Импровизация // Литературный энциклопедический словарь. — М.: Советская энциклопедия, 1987. — С. 121.

2. Импровизация и обучение игре на фортепиано: методические рекомендации / сост. Г. П. Каганович. — Вып. 1–2. — Минск, 1997. — 86 с.

3. Кан-Калик В. А., Никандров Н. Д. Педагогическое творчество. — М.: Педагогика, 1990. — 144 с.

4. Харкив В. Н. Педагогическая импровизация: теория и методика. — М., 1992. — 157 с.

5. Харков В. Н. Импровизация... Импровизация?.. Импровизация! — М.: Магистр, 1997. — 288 с.

6. Харкин В. Н. Педагогическая импровизация: специфика и пути подготовки // Формирование личности советского учителя: опыт и проблемы: тезисы докладов и сообщений областной научно-практической конференции. — Измаил, 1989. — С. 59–60.